

**BADIIY MATNLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI MASALALARI****Akramova Nilufar A'zamjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti

lingvistika(ingliz tili) yo'nalishi magistranti

[nilufar1992@gmail.com](mailto:nilufar1992@gmail.com)**Ashurali Mirzayev Baxtiyor o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti

ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

[ashuralimirzayev@pdf.fdu.uz](mailto:ashuralimirzayev@pdf.fdu.uz)**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada badiiy matnni o'rganilish darajasi va badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari va unda zarur bo'ladigan jihatlar yoritilgan. Badiiy matnning lingvistik tahliliga oid zarur bosqichlar yoritib berilgan. Badiiy matnlarni o'rganishda va tahlil qilishda bajarilgan ishlar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *badiiy asar tili, lingvopoetika, tilning ifodalanish funksiyalari, badiiy matn, badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari, badiiy matn turlari.*

Tilning muayyan davrdagi tarixiy holati, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanib borish jarayoni, uning o'rganilish bosqichlari, hozirgi holati va o'sha davrdagi holatlarini taqqoslanishi va o'rganilishi va taqiq qilib borilishi ma'lum. Tilni mana shu o'rganish jarayonida uning funksiyalarini farqlab olishimiz mumkin. Hozirgi davrda tilning ifodalanish funksiyalaridan biri kommunikativlikdan tashqari ekspressivlik funksiyasi ham nihoyatda muhim o'rin tutadi. Bunga olmon tilshunosi fon der Gabelensning 1891-yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltirishimiz

mumkin: «Til fikrning bo‘laklarga bo‘lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog‘lanishidir. Lekin inson tili faqat bog‘lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o‘zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to‘yintirgan holda psixologik omil qo‘shiladi». Ana shunday qilib so‘zlovchining his-hayajoni, uning nutqidan nimani ifodalash maqsadi kommunikativlik bilan bir qatorda ekspressivlik maqsadining ham ahamiyatini oshiradi. Badiiy asar tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarda tilning nafaqat “ekspressiv vazifasi”, balki bu atama bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi” hamda “tilning estetik vazifasi” atamalarini ham uchratamiz. Badiiy asarning ekspressivlik vazifasi badiiy asarga ekspressivlik, badiiylik, poetiklik jihatdan rangdor bo‘yoq bergani sababli asosan, nadiiy asarlarda ekspressivlik atamasiga keng urg‘u beriladi. Bunga misol qilib olmon tilshunosi fon der Gabelensning 1891 yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltirishimiz mumkin: «Til fikrning bo‘laklarga bo‘lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog‘lanishidir. Lekin inson tili faqat bog‘lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki o‘zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to‘yintirgan holda psixologik omil qo‘shiladi».(1) O‘zbek tilshunosligida ham badiiy asar tili lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilgan ishlar bisyor. Masalan, ba’zi ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o‘rganilgan, mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Akademik Sh. Shoabduraxmonovning bir qator ilmiy ishlarida o‘zbek xalq dostonlari, shuningdek, adiblar badiiy asarlarining tili chuqur tahlil etilgan, leksik-semantik, grammatik birliklarning konkret asardagi badiiy-estetik qimmatini ochib berilgan. Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida yutimizda olimlar X.Doniyorov, S.Mirzayev, X.Samadov, I.Qo‘chqortoyev, I. X.Abduraxmonov, M. Mirtojdiyev, N. Mahmudovlar alohida

diqqatga sazovor bir qancha ishlarni yaratganlar. O‘zbek tilshunosligida bir qator olimlar badiiy asarning lingvopoetikasiga oid ishlar olib borganlar. Lekin so‘nggi yillarda olimlar, mana shu sohada ilmiy izlanish olib borayotgan insonlar asosan, leksik jihatdan badiiy asarning lingvopoetikasini o‘rganishmoqda va murojaat qilishmoqda. Xususan, B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi o‘zbek she‘riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an‘anaviy poetizmlar, so‘z variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar tadqiq etilgan. Ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo‘yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog‘lik katta bo‘lishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida o‘rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo‘lmaydi.

Ushbu yozuvchining asarida, qo‘llanmasida yozuvchining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda talabalarning umumfilologik saviyasini oshirish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilindi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi nazarda tutildi:

- matn tushunchasi, matn tiplari va tarkibiy butunligi;
- badiiy matn tavsifi, badiiy matnning boshqa matnlardan farqi, badiiy nutq uslubi, badiiy matnning kompozision butunligi, butunlikni ta‘minlovchi lisoniy vositalar; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. –М., 1991., с-35.
- badiiy matnni tahlil qilish metodologiyasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va usullari, tahlil tiplari;

Badiiy matnni til sathlari bo‘yicha tahlil, badiiy matnda fonologik va leksik-frazeologik birliklar estetikasi, tasviriy vositalarning badiiy matndagi vazifasi hamda grammatik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishning quyidagi bosqichlari mavjud.

A.Dastlabki tayyorgarlik. Har qanday badiiy asarni o‘qish uchun dastlabki tayyorgarlik zarur bo‘ladi. Bu tayyorgarlik aslida avtomatik tarzda namoyon bo‘ladi.

Masalan, biror bir asarni o'qimoqchi bo'lganingizda asar muqovasining o'ziyoq sizga dastlabki ma'lumotlarni beradi. Muqovaning bezatilishi, muallif ismi-sharifi, hatto roman deb yozib qo'yilgan bo'lsa, o'sha so'zning o'zi ham matn bilan munosabatga kirishishingizni ta'minlaydi. Biz aytmoqchi bo'lgan tayyorgarlik ham shunga yaqin faqat biroz vaqt, biroz qunt va jiddiyat talab qilishi bilan farqlanadi. Bu tayyorgarlikni to'rt odimda umumlashtirishga harakat qildik.

Birinchi qadam. Matnga aloqador ma'lumotlarni o'rganish.

- Asarning nomi, yozuvchisi, nashr etilgan yili va joyi. Hajm belgisiga ko'ra matn turini aniqlash.

- Matn haqidagi yozuvchining yoki nashrga tayyorlovchining kirish so'zi.

- Matn turini aniqlash.

Ikkinchi odim. Matn tuzilishini o'rganish.

- Matnning tashkil tarzini o'rganish. Bob, fasl, qism, bo'lim va ularning nomlarini, nazmiy asar bo'lsa bayt, misra kabi tashqi xususiyatlarini aniqlash.

- Yordamchi qismlarini aniqlash. Epigraf, epilog, agar nazmiy asar bo'lsa sarlavha, atov so'zi bayt, misra kabilarni aniqlash.

Uchinchi odim. Matnni birinchi marta o'qish. Matnni sinchiklab o'qish va tushunilishi qiyin bo'lgan joylarni belgilab borish, o'qish jarayonida e'tiborni tortgan so'z, ibora, maqol-matal va ayrim epizodlar yoniga belgi qo'yib borish tavsiya qilinadi.

To'rtinchi odim. Matn va ijtimoiy hayot o'rtasidagi aloqani o'rganish.

-Matn qaysi davrda, qayerda, qanday ijtimoiy muhitda yozilganligini aniqlash.

-Matnda qalamga olingan voqyealar qaysi hudud va qaysi davr uchun xosligini aniqlash. Matnning ifoda maqsadi va mazmuniga ko'ra turini belgilash.

-Matn yozilgan davr va yozuvchi mavqeyi. Yozuvchiga zamondoshlarining munosabati va yozuvchining zamondoshlariga munosabati.

-Yozuvchining boshqa asarlari va siz tahlil qilayotgan asari o'rtasidagi aloqadorlik.

B. Matn va til estetikasi.

D.Badiiy matn va tasvir vositalari.

**Xulosa.**

Yozuvchi va shoirlarning asarlarini o'rganish til va adabiy til namunalari bilan tanishish imkonini beradi va ularning haoytimizdagi ahamiyatini oshiradi. Adabiy asarlarda voqea va hodisalar so'z sifatida emas badiiy ijodkorning tili va badiiy mahorati orqali ifodalanadi. So'nggi yillarda badiiy asar tili va uni o'rganishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, shuning uchun olimlar badiiy asarlarni o'rganish va ularni lingvopoetik tahlil qilish orqali badiiy asarlarning ahamiyatini tushunib borishmoqda. Ushbu maqolada badiiy asarni tahlil qilish bosqichlari o'rganilgan va to'liq yoritib berilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Mirzaev "She'riy matnni lingvistik va she'riy talqin qilish muammolari" doktorlik dissertatsiyasi
2. Borisova E.B. Artistic Image in the English Literature of the 20th Century: typology - linguopoetics - translation. - Abstract of the candidate thesis. - Samara, 2010. - URL: [http://www.ceninauki.ru/info/page\\_18437.htm](http://www.ceninauki.ru/info/page_18437.htm).
3. Vinogradov V.V. Stylistics. Theory of Poetic Speech. Poetics. - M., 1968. Shmulda.I. A. lingvopoeticheskaya stratifikatsiya xudojestvennih tekstov i Izuchenie individualnogo avtorskovo stilya: na materiale proizvedeni Shekspira. Kandidat filol.nauk-M. 2001.- C. 3
4. Karpova L.S. The Linguopoetic Study of Narrative Types in English Elizabethan Sonnets. - Abstract of the candidate thesis. - M., 2009.
5. Kirtaeva A.V. The Linguopoetics of Multicomponential Attributive Word-Combinations in the English Drama of the 16-18th Centuries. - Candidate thesis. - M., 2001.
6. Lipgart A.A. The Bases of Linguopoetics. - M., 2006.
7. Lipgart A.A. Methods of Linguopoetic Research. - M., 1997.

8. Lipgart A.A. Functional Stylistics: A Thing of the Living Present(Editorial) // *Folia Anglistica*. - 1997. - №1. - P. 5-10.
9. Axunjanova Mohira Azamovna. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум*, (11), 46-49.
10. Axunjanova Mohira Azamovna. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS' AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES— AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation*, 1(B6), 390-392.
11. G'ofurova Nozima Ikromovna. Nozima, G. (2021). Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг таҳлили. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
12. G'ofurova Nozima Ikromovna. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
13. G'ofurova Nozima Ikromovna. Mirzayev, A., & Oripova, S. (2022). COMMUNICATIVE METHOD—A NEW APPROACH IN THE PRACTICE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 1(B6), 778-783.
14. Mirzaev Ashurali Baxtiyor o'g'li. Ashurali, M. (2022). HOZIRGI KUNDAGI TA'LIM TIZIMIDA ONLAYN TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN METODNI TA'LIMGA JORIY QILISHNING AKTUALLIGI. *Involta Scientific Journal*, 1(13), 25-28.